

BOLALAR SPORTINI RIVOJLANISHIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING AHAMIYATI

Axmedov Jaloliddin Oribovich

Andijon davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti

Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasida dotsenti

Ahmedov jaloliddin 09@gmail.com Tel: Q998914750883

Annotatsiya: maqolada bolalarni jismoniy rivojlantirish va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida turli mashqlardan foydalanish xamda jismoniy sifatlarini rivojlantirish.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, jismoniy sifatlar, jismoniy barkamollik.

ЗНАЧЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В РАЗВИТИИ ДЕТСКОГО СПОРТА

Ахмедов Джалолиддин Орибович

Факультет физической культуры Андиганского государственного университета

Доцент кафедры межфакультетской физической культуры и спорта

Ahmedov jaloliddin 09@gmail.com Тел: +998914750883

Аннотация: в статье рассматривается развитие физических качеств на уроках физического воспитания и физического развития детей используются различные упражнения.

Ключевые слова: физическое воспитание, физические качества, физическое совершенство.

The importance of physical culture and sports in the development of children's sports

Akhmedov Jaloliddin Oribovich

Associate professor of the Department of Physical Culture and sports

Faculty of Physical Culture

Andijan State University

ahmedov jaloliddin 09@gmail.com Phone: +998914750883

Annotation: The article discusses the development of physical qualities in the lessons of physical education and physical development of children, various exercises are used.

Keywords: Physical education, physical qualities, physical perfection.

KIRISH.

So‘nggi yillarda o‘zbek sporti o‘zining yuksak natijalari bilan mamlakatimiz shuhratini jahon hamjamiyati oldida tarannum etib kelayotganligi, minglab xalqaro standartlarga mos sport majmualariqa bayrog‘imiz ko‘targanligi, yurtimizning turli hududlarida eng nufuzli xalqaro musobaqalarning o‘tkazib kelinayotganligi ushbu ishlarning amaliy mahsulidir. Lekin yuksak natijalarni qo‘ldan bermaslik, malakali, raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash to‘g‘ridan-to‘g‘ri yosh iste‘dodli zahiralarni yetishtirish bilan bog‘liqdir. Jismoniy tarbiya va sport nafaqat iqtidorli sportchilar tayyorlash uchun, balki va barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qilishi darkor. Ma‘lumki, bolalar sportini rivojlantirish faqatgina masalaning moddiy-

texnik jihatlari bilan belgilanmaydi, balki yosh avlodni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, mashg‘ulotlarni va jismoniy tayyorgarlikni samarali shakllantirish muhimligiga e’tibor qaratadi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR.

Sport soxasidagi olimlar va amaliyotchi mutaxassislar fikrlariga ko‘ra jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar (jismoniy tarbiya darsi, mashg‘uloti, sport musobaqalari) mazmunini maqsadli rejalashtirish va boshqarish har bir mutaxassis (o‘qituvchi, murabbiy, tashkilotchi, uslubchi, yo‘riqchi) va rahbar shaxsga katta mas’uliyat yuklashi, ular jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik va sport moslamalariga oid bilimlarni o‘zlashtirishlari, muvofiq kasbiy-pedagogik malaka va ko‘nikmalarni puxta egallashlari zarurligi isbot talab qilmaydi. Bolalar sportini samarali tashkil qilish, ko‘p yillik sport mashg‘ulotlari jarayonida shug‘ullanuvchilar sog‘ligi va ularning sport mahoratini shakllantira borish ustuvor jihatdan jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlariga bevosita bog‘liqdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari oldiga qo‘yiladigan asosiy maqsad sog‘liqni mustahkamlash hamda yuqori sport natijalariga erishish, avvalambor yoshlikdan boshlab umumiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish muhimligiga e’tiborni qaratadi. Aksariyat olimlarning ta’kidlashi cha, muayyan sport turi bo‘yicha muntazam o‘tkazib boriladigan hamda hajm, shiddat va mazmun jihatdan to‘g‘ri tashkil qilingan mashg‘ulotlar bolalar va o‘smirlar organizmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatar ekan. Lekin umumiy jismoniy tayyorgarlikka asoslanmagan va tor doirada ixtisoslashtirilgan mashg‘ulotlar salbiy oqibatlariga olib kelishi kuzatilgan. Shunday ekan, jismoniy tayyorgarlikni belgilovchi harakat sifatlarini dastlabki tayyorgarlik bosqichidan boshlab rivojlantirish, keyingi bosqichlarda (o‘quv-mashg‘ulot, sport mahoratini takomillashtirishi bosqichlari) esa mazkur sifatlarni tanlangan sport turi xususiyatiga ixtisoslashtirib shakllantira borish bolalar sportini tashkil qilishning muhim shartlaridan biri bo‘lishi lozim. Ammo o‘quvchi yoshlarda, sport to‘garaklarida shug‘ullanuvchi bolalarda qaysi yosh davrida qanday jismoniy sifatlarni rivojlantirish ma’qul degan savol tug‘iladi.

Lekin jismoniy va sport mashqlarini tanlash va ularni qo‘llashda mazkur yosh davrlariga prinsipial yondashish ayrim salbiy oqibatlariga olib kelishi ehtimoldan holi emas. Chunki har bir muayyan yosh organizm o‘ziga xos genetik (nasliy) qobiliyatlar va hayot davomida orttirilgan jismoniy- funksional zahiraga ega bo‘ladi.

Bolalar sporti doirasida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar davomida jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish masalalari har bir sport turi xususiyatiga ega mashqlarni tanlash va ularni o‘ziga xos texnologiyalar asosida qo‘llash zarurligiga e’tibor qaratadi. Ma’lumki, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam va maqsadli shug‘ullanish immunitetni kuchaytirishi azaldan isbot qilingan. Demak, shug‘ullanuvchilar yoshi, jismoniy va funksional tayyorgarligiga qarab qo‘llaniladigan sport mashg‘ulotlari yuklamalari nafaqat jismoniy sifatlarni va sport mahoratini shakllantiradi, balki salomatlikni ham mustahkamlab boradi. Mashg‘ulotlarni tashkil qilish, rejadagi vazifalarga qarab mashqlarni tanlash va ularni to‘g‘ri qo‘llash murabbiyning bilimi, malakasi va ko‘nikmalariga bog‘liqdir. Har bir murabbiy o‘zi qo‘llayotgan mashqlar samaradorligi hamda ularni bola organizmiga qanday ta’sir

ko‘rsatayotganligini aniqlashga mo‘ljallangan pedagogik va fiziologik testlardan foydalanish texnologiyasidan xabardor bo‘lishi lozim. Ta’kidlash joizki, mashg‘ulotlar bolalarni qiziqtirish, ularni faolligini oshirish ustivor jixatdan shu mashg‘ulotlarning mazmuni, serqirraligi va yo‘nalishi bilan belgilanadi.

X U L O S A

Xulosa qilib aytganda, jismoniy sifatlarni rivojlantirish va sport malakalariga o‘rgatish samaradorligini oshirishda turli ko‘p funksional trenajerlar hamda moslamalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi Faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 31 oktyabr №374 Qarori
2. “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi Faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 29 avgust №3481 Farmoni G‘G‘ Xalq so‘zi. - 2004. – 30 avgust.
3. Usmanxo‘jayev T.S. Bolalar va o‘smirlar sporti. T.: 2006.